



UDK: 378.091.31 – 059.2:37.013

Dilnoza UMOROVA,
Urganch davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti
E-mail: dilnozaumorova.1611@gmail.com,

Urganch RANCH texnologiya universiteti dotsenti, PhD N.Raimova taqrizi asosida

ABDULHAMID CHO'LPONNING "KECHA VA KUNDUZ" ROMANIDAGI KRAETIVLIK G'OYALARI

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek adabiyotining yirik vakili bo'lgan Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi kreativlik g'oyalari tahlil etiladi. Asarda muallif tomonidan yangicha badiiy yondashuv, obraz yaratish mahorati, zamonaviy tafakkur va ramziy ifodaning o'ziga xos uyg'unligi namoyon bo'ladi. Maqolada romandagi estetik yangiliklar, individual psixologik tahlillar, ijtimoiy-falsafiy g'oyalar va ayol obrazi orqali berilgan erkinlik konsepsiyasi asosiy tahlil obyektlari sifatida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, asarda aks etgan kreativlik g'oyalari milliy adabiyotimizda yangi bosqichni boshlab bergani yoritilgan. Mazkur tadqiqot Cho'lpon ijodining badiiy-estetik mohiyatini chuqur anglash va zamonaviy adabiy jarayonlar bilan bog'lashga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Cho'lpon, Kecha va kunduz, kreativlik, badiiy tafakkur, ramziy obraz, milliy uyg'onish, estetik yangilik, adabiy innovatsiya, ayol obrazi, jadid adabiyoti.

КРЕАТИВНЫЕ ИДЕИ В РОМАНЕ АБДУЛАХАМИДА ЧУЛПАНА «НОЧЬ И ДЕНЬ»

Аннотация

В данной статье анализируются идеи креативности в романе «Ночь и день» одного из выдающихся представителей узбекской литературы – Чулпана. В произведении проявляется новый художественный подход автора, мастерство создания образов, современное мышление и своеобразное сочетание символического выражения. Основными объектами анализа стали эстетические новшества, индивидуально-психологические анализы, социально-философские идеи и концепция свободы, выраженная через женский образ. Также освещается, как креативные идеи, отражённые в романе, ознаменовали новый этап в развитии национальной литературы. Настоящее исследование способствует глубокому пониманию художественно-эстетической сути творчества Чулпана и его связи с современными литературными процессами.

Ключевые слова: Чулпан, «Ночь и день», креативность, художественное мышление, символический образ, национальное возрождение, эстетические новшества, литературные инновации, женский образ, джадидская литература.

CREATIVE IDEAS IN ABDULHAMID CHOLPON'S NOVEL "KECHA VA KUNDUZ"

Annotation

This article analyzes the ideas of creativity in the novel Night and Day by Chulpan, a prominent figure in Uzbek literature. The novel showcases the author's innovative artistic approach, mastery in character creation, modern thinking, and a unique harmony of symbolic expression. The main focus of the analysis lies in the aesthetic innovations, individual psychological portrayals, socio-philosophical ideas, and the concept of freedom represented through the female character. The article also highlights how the creative ideas reflected in the novel marked a new phase in the development of national literature. This study serves to deeply comprehend the artistic and aesthetic essence of Chulpon's work and to connect it with contemporary literary processes.

Key words: Chulpon, Night and Day, creativity, artistic thinking, symbolic image, national awakening, aesthetic innovation, literary innovation, female character, Jadid literature.

Kirish. Adabiyot va san'atga, madaniyatga e'tibor - bu avvalo, xalqimizga e'tibor, kelajagimizga e'tibor ekanini, buyuk shoirimiz Cho'lpon aytganidek, adabiyot, madaniyat yashasa, millat yashashi mumkinligini unutishga bizning aslo haqqimiz yo'q[1].

Bugungi kunga qadar Cho'lpon ijodini o'rganish borasida adabiyotshunoslikda katta ilmiy ishlar amalga oshirilgan. A.A.Aymatov o'z tadqiqot ishida Cho'lpon ijodini o'rganishni 3 guruhga bo'lgan. Ular quyidagilar:

Birinchii turkum - Cho'lpon ijod etgan davrdagi ijtimoiy muhit, ijodini shakllanishi va xalq ma'naviy merosidagi o'rni masalalariga bag'ishlangan ishlar. Bu borada O.Sharafiddinonov, S.Mamajonov, N.Karimov, B.Qosimov, Sh.Rizayev, D.Quronov, Sh.Turdiyev, N.Vladimirova, M.Rahmonov kabi adabiyotshunos olimlar ishlagan.

Ikkinchi turkum - Cho'lponning publitsistik asarlari, uning poyeziyasida badiiy obrazlar talqini hamda peyzash masalalari o'rganilgan ilmiy tadqiqotlar. Bular sirasiga D.Ne'matova, M.Yo'ldoshev, S.Yo'ldoshebovalar kiradi.

Uchinchi turkum - jadidchilik harakatining ijtimoiy-falsafiy hamda axloqiy mohiyati va unda Cho'lpon ijodining o'rni masalalarini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar. Bu tadqiqotlar G.Mahmudova, Sh.Madayeva, M.Nurmatova, B.Ochilova, L.Muhammadjonova kabi olimlarning ilmiy tadqiqotlarida o'z aksini topgan[2].

Tarixga nazar soladigan bo'lsak, har bir davrning o'ziga xos taraqqiyot bosqichlari mavjud. Shu taraqqiyot jarayonida xalqning dunyoqarashi, badiiy-estetik va kreativ kompetensiyalari shakllanib boradi. XX asrning yorqin ijodkorlaridan bo'lgan Abdulhamid Cho'lpon, xalqimiz ma'naviyati va ma'rifatini rivojlantirishga katta hissa qo'shgan. Uning she'riyati va asarlari orqali jamiyatning kreaativligini oshirishga undovchi g'oyalar mavjud desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Cho'lpon "Qalandar", "Mirzaqalandar", "Andijonlik" kabi taxalluslar bilan ijod qilgan. Uning tug'ilgan yili haqida ko'plab bahs-munozaralar mavjud. Jumladan, Cho'lpon bilan hamkor va do'st bo'lgan Vasiliy Yan uning tavalludini 1897-

yil deb ko'rsatadi[3]. Abdulhamidning dastabki savodi eski maktabda chiqqan. Undan so'ng o'qishini rus-tuzem maktabida davom ettiradi. Bu borada "Abdulhamid har kuni xususiy ravishda ruscha o'qir edi,-deb yozadi o'z xotiralarida M.Muhammadjonov, - Turiston, Ozarbayjon, Hindistonda chiqadigan hamma gazeta va jurnallarga mushtariy bo'lib, ruscha gazetalarni ham o'qib turar edi[4].

Cho'lpon eski maktabda Navoiy, Hofiz, Sa'diy, Mashrab, Bedil va boshqa Sharq mutafakkirlarining ijodini o'gangan bo'lsa, rus-tuzem maktabida esa Pushkin, Gogol, Tolstoy va Gorkiy ijodi bilan tanishadi.

O'tgan asrning 20-yillarida Cho'lpon sermahsul shoir sifatida e'tiborga tushadi va she'riy to'plamlari ketma-ket nashr etiladi. Ayniqsa, "Uyg'onish", "Buloqlar", "Tong sirlari", "Soz" majmualarini o'quvchilar sevib mutoala qilishgan. Bundan tashqari, nasriy asarlari orasida "Duxtur Muhammadiyor", "Qor qo'ynida lola" hikoyalari, "Yov" qissasi, "Kecha va kunduz" romanining "Kecha" qismi estetik jihatdan diqqatga sazovor. XX asrning 20-30-yillar vaqtli matbuotida Cho'lponning ma'naviy izdoshlari bag'rikeng, ma'rifat va mamlakat taraqqiyoti uchun kuyunchak shaxs bo'lganligi haqida yozishgan. Masalan, "Qizilbayroq" gazetasining 1922-yil 29-iyul va 1-avgust sonlarida bosilgan xatga qaraganda, - deb yozadi S.Herali Turdiyev, - shu vaqtga qadar Germaniyadagi Ziroat akademiyasida faqat Toshkentlik Abdulvahob Murodov ismli talaba o'qiganligi ana shu talabaga Turkiston ziyolilari moddiy yordam uyushtirganida Cho'lpon o'z jamg'armasindan 7500 so'm ajratganligini aytdi[5].

Adabiyotlar tahlili. D.Jabborova "Istiqloq davri o'zbek adabiyotshunosligida Cho'lpon ijodi talqinlari" nomli dissertatsiyasida Cho'lpon ijodini yangi ilmiy konsepsiyalarga ko'ra tadqiq va talqin etishning ilmiy-nazariy asoslarini aniqlab bergan, uning hikoyalari va "Kecha va kunduz" romani tahliliga bag'ishlangan tadqiqotlarda qo'llanilgan metod va yondashuvlar asosida yangi nazariy qarashlarning shakllanish jarayonini yoritgan[6].

SH.Xojiyeva "Cho'lpon she'riyatida poetik tafakkurning yangilanish tamoyillari" nomli dissertatsiyasida Cho'lpon va XX asr boshlari jahon adabiyotdagi jarayonlar tahlili misolida ijtimoiy-adabiy meros poetik mazmun yangilanishning asosi ekanligini isbotlagan. Rus va G'arb she'riyatidagi badiiy obraz yangilanishida yetakchi adabiy estetik omil ekanligini yoritgan[7].

O.O'roqova "Cho'lpon badiiy ijodining konseptual-estetik asoslari" nomli dissertatsiyasida Cho'lpon ma'naviy, badiiy-estetik merosining nazariy-estetik mohiyatini tizimli-funksional tahlil orqali yoritib bergan. Cho'lpon merosidagi estetikaga oid mezoniy tushunchalarning dialektik birligini nazariy jihatdan tadqiq etgan. Cho'lponning "Adabiyot yashasa - millat yashar" g'oyasining ijtimoiy mohiyati va estetik ahamiyatini hamda shaxsning estetik yuksalishidagi o'rmini ko'rsatib bergan[8].

SH.To'ychiyeva "Kecha va Kunduz romanida ijodkor dunyoqarashi va badiiy uslub muammolari" nomli dissertatsiyasida Cho'lpon ijodining g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini uslub muammoasi bilan bog'liqlikda tadqiq qilgan. Cho'lpon ijodiy fenomenini iste'dodning takomillashib borishi jarayonida kuzatib, yozuvchining modern yo'sindagi tajribalariga mos milliy va umuminsoniy jihatlarini jahon aspektida yoritgan[9].

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqotda Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidagi kreativlik g'oyalari aniqlash va tahlil qilish uchun adabiy-tahliliy hamda kontekstual yondashuvlar qo'llanildi. Asarda namoyon bo'ladigan kreativ tafakkur, obrazlar orqali berilgan ijtimoiy-falsafiy qarashlar, va badiiy innovatsiyalarni ochib berish maqsadida quyidagi metodologik asoslar tanlandi:

1. Adabiy-tahliliy yondashuv: Asar matni to'g'ridan-to'g'ri o'rganilib, Cho'lponning badiiy uslubi, til boyligi, obraz yaratishdagi yangiliklari, ramz va metaforalardan foydalanish usullari tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali muallifning individual yozuvchilik mahorati va adabiy kreativligi o'rganildi.

2. Kontekstual (tarixiy-madaniy) tahlil: Roman yozilgan davrning tarixiy, siyosiy va ijtimoiy holati hisobga olinib, asarda ilgari surilgan g'oyalar qanday zaminda shakllangani aniqlashirildi. Shu orqali Cho'lponning ijodiy fikrlash doirasi va o'z davriga nisbatan tutgan munosabati o'rganildi.

3. Komparativ yondashuv: Cho'lponning romanidagi kreativ elementlar boshqa o'zbek yoki jahon adabiyotidagi o'xshash mavzudagi asarlar bilan solishtirib tahlil qilindi. Bu usul roman kreativligini nisbiy tahlil qilishga va muallif o'ziga xosligini ko'rsatishga xizmat qildi.

4. Diskursiv tahlil: Asarda ifoda etilgan g'oya va tushunchalarning tilshunoslik va madaniy tafakkur kontekstida qanday shakllangani o'rganildi. Bu orqali matndagi ideologik va estetik kreativlik namunalari aniqlab berildi. Tadqiqot davomida asosiy manba sifatida "Kecha va Kunduz" romanining matni asos qilib olindi, shuningdek, Cho'lpon ijodiga oid ilmiy tadqiqotlar, adabiy tanqidiy maqolalar, estetik nazariyalar va kreativlik haqidagi zamonaviy qarashlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyotida badiiy tafakkur, ijtimoiy tanqid va estetik yangilanish jihatidan katta ahamiyat kasb etuvchi asarlardan biridir. Asarda muallifning kreativ yondashuvi nafaqat voqelikni aks ettirishda, balki uni talqin etish va qayta yaratuvchanlik orqali ifodalashda yaqqol ko'zga tashlanadi. Mazkur romanda ilgari surilgan kreativlik g'oyalari, avvalo, yozuvchi tafakkurining erkinligi, davr muammolarini san'at orqali yoritish borasidagi jasorati hamda yangicha adabiy-estetik qarashlarida namoyon bo'ladi.

Birinchidan, "Kecha va kunduz" romanida kreativlik avvalo insoniylik, ozodlik, adolat kabi umuminsoniy qadriyatlarini markazga olib chiqishda ko'zga tashlanadi. Asar qahramonlarining ichki kechinmalari, psixologik holatlari orqali muallif zamonaviy insonni yaratishga, uni erkin fikrlovchi shaxs sifatida ko'rsatishga intiladi. Bu jihat adabiyotda psixologik realizmga xos kreativ yondashuvlardan biridir. Muallif Muxtor va Zaynab obrazlari orqali ijtimoiy bosim, ma'naviy zo'ravonlik, qadriyatlar inqirozi muhitida inson qadrini saqlashga uringan shaxslar tragediyasini tasvirlaydi.

Ikkinchidan, Cho'lpon kreativlikni faqat mazmun darajasida emas, kompozitsion va stilistik jihatdan ham amalga oshirgan. Roman strukturasi kecha (jaholat) va kunduz (ma'rifat) ramzlari orqali davr muammolarining badiiy falsafasi yaratilgan. Ushbu binar oppozitsiyalar orqali muallif o'z zamonasidagi ikki dunyo – eski dunyo va yangi fikrlar to'qnashuvini estetik darajada ko'rsatadi. Ayniqsa, metafora, ramz va ichki monolog kabi vositalar orqali berilgan tafakkur qatamlari romanning kreativ tuzilishini mustahkamlaydi. Bu hol Cho'lponni modernistik adabiy oqimlarga yaqinlashtiradi.

Uchinchidan, asarda ilgari surilgan kreativ g'oyalardan biri — bu milliy uyg'onish g'oyalarining badiiy talqinidir. Cho'lpon jamiyatda sodir bo'layotgan o'zgarishlar, o'zbek xalqining o'zligini anglash harakati, ma'rifat, ilm va madaniyatga intilish motivlarini obrazlar va konfliktlar vositasida chuqur yoritadi. Bunda u yangi adabiy uslublar, stilistik tajribalarni sinab ko'rgan, klassik adabiyotdan olingan ayrim shakllarni zamonaviy ifoda vositalari bilan uyg'unlashtirgan.

To'rtinchidan, muallif o'z romanida ayol obrazini yaratishda ham kreativlik namunalari ko'rsatgan. Zaynab obrazida nafaqat o'z taqdiriga befarq bo'lmagan, balki

o'zining shaxsiy erkinligi uchun kurashuvchi, ichki olami boy va mustaqil fikrlovchi ayol siymosi gavdalanirilgan. Bu esa o'zbek adabiyotida ayolga nisbatan yangicha yondashuvning boshlanishidir va Cho'lpon buni zamonaviy adabiy tafakkur darajasida amalga oshirgan.

Shuningdek, roman ijodkorning individual adabiy olami va dunyoqarashini ifodalovchi betakror bir asardir. Uning kreativligi faqat zamonaviy g'oyalalar bilan chegaralanmaydi, balki u madaniy meros va yangi davr talablari o'rtasidagi badiiy muvozanatni topishda ham o'zini namoyon qiladi. Bu jihat o'zbek romanchiligida Cho'lpon yaratgan badiiy maktabning muhim jihatlaridan biridir.

Shuni ta'kidlash joizki, romanda ilgari surilgan g'oyalar, obrazlar orqali ifodalangan psixologik tahlillar, ramziy qatlamlar va ijtimoiy-estetik pozitsiyalar muallifning o'z zamonasidan ilgarilab ketgan fikrlovchi, novator yozuvchi sifatida shakllanganini tasdiqlaydi. Asardagi kreativlik g'oyalari, ayniqsa, hozirgi adabiy jarayonda yangidan o'rganilishi va talqin qilinishi kerak bo'lgan muhim adabiy boylikdir.

Cho'lponning "Kecha va kunduz" romani o'zbek adabiyoti tarixida yangi bosqichni boshlab bergan, chuqur falsafiy mazmun va badiiy yuksaklikka ega bo'lgan asar sifatida e'tirof etiladi. Ushbu roman ijodiy tafakkur, badiiy innovatsiyalar va yangicha estetik dunyoqarash asosida yaratilgan bo'lib, undagi kreativlik g'oyalari zamonaviy adabiy jarayonlar bilan uzviy bog'liqdir. Cho'lponning o'ziga xos badiiy uslubi, xarakterlar psixologiyasini chuqur tahlil qilish mahorati, tarixiy haqiqatni badiiy ifoda bilan uyg'unlashtira olishi romanni nafaqat davrining, balki bugungi o'zbek adabiyotining ham muhim asarlaridan biriga aylantirgan.

Romanda tasvirlangan voqealiklar zamonaviy tafakkur mezonlari bilan uyg'unlashgan holda berilgan bo'lib, muallif ijtimoiy adolatsizlik, shaxsiy erkinlik, milliy uyg'unish kabi masalalarni dadil va obrazli tarzda yoritgan. Ayniqsa, ayol

obrazi orqali ifodalangan ozodlik, ma'naviy uyg'unish va o'zlikni anglash motivlari Cho'lpon ijodining eng muhim kreativ jihatlaridandir. Asarda qadimgi va yangi dunyoqarash to'qnashuvi, kechagi turg'unlik va kunduzgi uyg'unish o'rtasidagi dramatik ziddiyat kuchli badiiy vositalar orqali tasvirlangan. Shuningdek, Cho'lponning badiiy tasvirga yangicha yondashuvi, ramziy va metaforik ifodalardan samarali foydalanishi, xalq og'zaki ijodiyoti bilan zamonaviy adabiy qoidalarini uyg'unlashtira olishi romandagi kreativlikning asosiy manbalaridan biri hisoblanadi. Uning ijodidagi estetik yangiliklar va konseptual yondashuvlar bugungi yosh ijodkorlar uchun o'rnatilgan bo'la oladi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, "Kecha va kunduz" romanidagi kreativlik g'oyalari nafaqat badiiy mahorat ifodasi, balki xalq ruhiyatining, tarixiy ong va milliy uyg'unish jarayonlarining badiiy aksidir. Cho'lpon o'z asari orqali o'zbek adabiyotida yangi uslubiy maktab, yangi adabiy tafakkur asoslarini yaratgan ijodkor sifatida o'z o'rnini mustahkamlagan. Ushbu asarni chuqur o'rganish, undagi innovatsion va kreativ g'oyalarni tahlil qilish nafaqat adabiyotshunoslik fani uchun, balki zamonaviy milliy identitetni shakllantirish jarayoni uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Cho'lpon ijodidagi kreativlik yondashuvlarini chuqur o'rganish va uni zamonaviy adabiy tanqidiy metodlar asosida tahlil qilish tavsiya etiladi:

1. "Kecha va Kunduz" romanining yangi tahliliy nashrlarini yaratish, asarning maktab va oliy ta'lim tizimida o'qitilishini kengaytirish zarur.

2. Milliy adabiyotda kreativlik va modernizmga oid konsepsiyalarni rivojlantirishda Cho'lpon ijodi asosiy manba sifatida o'rganilishi lozim.

3. Asardagi ijtimoiy-psixologik masalalarni zamonaviy jamiyat kontekstida tahlil qilish orqali yangi ilmiy izlanishlar olib borish maqsadga muvofiq bo'ladi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh. "Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish - xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir" mavzusida ma'ruzasidan. -Xalq so'zi, 2017.
2. Aymatov A. Abdulhamid Cho'lpon estetikasining g'oyaviy-badiiy asoslari. Falsafa fanlari nomzodi dissertatsiya. - Toshkent, 2011. - B. 50.
3. Sharafiddinov O. Ijod yo'li. - Toshkent, Yoshlik. 1987. N.10. - B. 48-49.
4. Muhammadjonov M. Turmush urinishlari. - Toshkent: G'.G'ulom, 1964. - B. 130.
5. Turdiyev Sh. Ma'rifat qaldirg'ochlari. - Toshkent: Yoshlik, 1989. N.7. -B. 64.
6. Jabborova D. Istiqlool davri o'zbek adabiyotshunosligida Cho'lpon ijodi talqinlari. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. -Toshkent, 2018, -B.7.
7. Xojiyeva Sh. Cho'lpon she'riyatida poetik tafakkurning yangikanush tamoyillari. - Toshkent, 2019. -B.9.
8. O'roqova O. Cho'lpon badiiy ijodining konseptual-estetik asoslari. Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori dissertatsiyasi. - Toshkent, 2018. - B. 13.
9. To'ychiyeva Sh. Cho'lponning "Kecha va Kunduz" romanida ijodkor dunyoqarashi va badiiy uslub muammolari. - Toshkent, 2016. - B. 20.